Ko‘p mamlakatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda past uglerodli siyosatni qo‘llayotganligi sababli, uglerodni ko‘p iste‘mol qiladigan mahsulotlarga global talab o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda qisqarishi kutilmoqda. Turli siyosiy stsenariylarga ko‘ra, yaqin yillarda jahonda zaharli moddalarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida nafaqat tabiiy gaz va neft, balki uglerodi ko‘p mahsulotlarga chegara soliqlari solinadigan mahsulotlar eksportini joriy etish muhim.

Keyinchalik voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiyalar va tizimlarga bog‘lanib qolmaslik uchun zudlik bilan iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini boshlash kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o‘tishga erishish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa “yashil” choralar ham qisqa muddatli foyda keltirishi mumkin. [5, p. 242-246].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Georgeson L., Maslin M., Poessinouw M. Global yashil iqtisodiyot: tushunchalar, ta'riflar, o'lchash metodologiyalari va ularning o'zaro ta'siri // Geo: Geografiya va atrof-muhit. – 2017. – T. 4. – №. 1. – S. e00036.
2. Kozar Ł. J., Sulich A. Green Jobs: Bibliometrik sharh // Atrof-muhitni o'rganish va jamoat salomatligi xalqaro jurnali. – 2023. – T. 20. – №. 4. – S. 2886.
3. Sulich A., Sołoducho-Pelc L. Visegrád guruhi mamlakatlarida qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchilarning strategiyalari //Energiya. – 2021. – T. 14. – №. 11. – S. 3048.
4. Sulich A., Soloducho-Pelc L. Doiraviy iqtisodiyot va yashil ish o'rinlarini yaratish //Atrof-muhit fanlari va ifloslanish tadqiqotlari. – 2022. – T. 29. – №. 10. – S. 14231-14247.
5. Yodgarov, Nodir. "Chizma geometriyaga asoslangan vizual 3D modellarni qurish usullari". O'rta Evropa ilmiy byulleteni 18 (2021): 242-246.
6. N. Dj. Yadgarov, t.f.n., dotsent Buxoro – ochiq osmon ostidagi muzey // Sharq xalqlari san’ati va madaniyati. 2019. №IV (1). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/bukhara-open-airmuseum (ma'lumotlar manzili: 29.04.2024).
7. Zhamoliddinovich, Urinov B. "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA HUDUDLARDA O‘SISH MARKAZLARI VA O‘SISH QUTBLARI RIVOJLANISHI

Abdulxakimov Zuxrali Tursunalievich
PhD, dotsent
Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo xo‘jaligidagi jiddiy, tarkibiy o‘zgarishlar va u orqali tabiatga inson ta’sirini kamaytirish, yashil iqtisodiyot shakllarini barpo etish bo‘yicha tadqiqot olib borilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot terminiga aniqlik kiritilgan, dunyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbolda rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilgan. Shu asnoda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlantirish orqali yangi o‘sish nuqtalari va qutblarini rivojlantirish yo‘llari va ularni nazariy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hududlar, iqtisodiy o‘sish, barqaror o‘sish, yashil iqtisodiyot, yashil sektor,. P4G sammiti, iqtisodiyot modellari, o‘sish markazlari, o‘sish qutblari, innovatsiya, innovatsion bosqich,*

raqobat, ekologik muammolar, antropogen ta’sir, atrof-muhit, atrof-muhit indeksi, postindustrial bosqich, jahon iqtisodiyoti, BRIKS, geoekologiya, tabiatdan ratsional foydalanish.

Annotation: *In this article, a study was conducted on serious, structural changes in the world economy, and through it, reducing human impact on nature, establishing forms of green economy, clarifying the term green economy, ways of developing green economy in countries strategies and future development strategies have been developed. In this context, the ways of developing new growth points and poles through the development of green economy in the Republic of Uzbekistan and their theoretical aspects were analyzed.*

Аннотация: *В данной статье проведено исследование серьезных, структурных изменений в мировой экономике и через них снижения воздействия человека на природу, установления форм зеленой экономики, уточнения термина зеленой экономики, путей развития зеленой экономики в странах, стратегии и будущего. разработаны стратегии развития. В данном контексте проанализированы пути развития новых точек и полюсов роста посредством развития зеленой экономики в Республике Узбекистан и их теоретические аспекты.*

Jahon iqtisodiyotini jadal rivojlanishini ta’minlash va mamlakatlar iqtisodiyotini yangi bosqichga ko‘tarish o‘z navbatida raqamli tizimlarga o‘tish, yashil iqtisodiyot elementlarini kiritish orqali iqtisodiy o‘sishni barqarorligi ta’minlanadi. Yashil iqtisodiyot - iqtisodiyotni atrof-muhitga ta’sirini minimillashtirish, antropogen ta’sirni salbiy tomonlarini yo‘qotish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda tartibga solishga aytiladi.

Mamlakatlar rivojlanishidagi yashil iqtisodiyotning o‘rni rivojlangan mamlakatlarda raqobatni yuqori darajadaligi bilan ajralib turadi. Kelgusida istiqbolda barqaror rivojlanish sur’atini ta’minlash, qambag‘allik muammosini hal etish, jamiyat hayotida inson ishtiroki muammolari hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyotga to‘liq amal qilish asosan BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Afrika Respublikasi) mamlakatlarida tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari o‘tish orqali ta’minlangan.

Dunyo xo‘jaligidagi “yashil sektor” tushunchasi iqtisodiyotda yashil o‘sish (green shoots) tushunchalari shakllanishiga olib keldi. AQSh iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni 4,2 % ini bermoqda va 600 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan holda u sohada 3 mln kishi band. Yaponiyada yashil iqtisodiyot ulushi YaIMni 3,4 %ini tashkil etib,1,5 mln kishi band, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa uning ulushi YaIMda 2,5 % ini tashkil etib, 3,4 mln kishi band hisoblanadi. Germaniyada esa toza ekologik mahsulotlar eksporti bo‘yicha yetakchilik qiladi va 4,8 % ini tashkil etadi. Buyuk Britaniya YaIM da yashil iqtisodiyot ulushining yuqoriligi bo‘yicha yetakchilik qiladi va 8,8 % ini tashkil etgan holda eksport tarkibida ulushi 5 % ni tashkil etadi. Climate Bonds Initiative tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra 2019 yilda yashillashtirishni halqaro klassifikatsiyalash uchun 254,9 mlrd AQSh dollari sarflandi va bu sohada 2018 yilda 171,1 mlrd AQSh dollari sarflandi, 2019 yilda o‘tgan yilga nisbatan 2,6 % ga yashillik kreditlar o‘sdi [3]. Shu sababdan an’anaviy iqtisodiyot modellaridan yashil iqtisodiyotga o‘tish davrini boshlash lozim bo‘ladi. Yoqilg‘i-energetikaning qazilma turlaridar voz kechib, yangi yashil iqtisodiyotga kiruvchi qisqa uglerodli iqtisodiyot yaratish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash hisoblanadi. 2021 yil 30-31 may kunlari Koreya

Respublikasining Seul shahrida tashkil etilgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) sammitidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma’ruzasini alohida e’tirof etish lozimdir. Ma’ruzada asosiy e’tibor yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, tabiatni sof holda saqlash, transchegaraviy suvlardan foydalanish, bioxilma-xilikni saqlash, iqlim o‘zgarishlari kabi global o‘zgarishlarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij kelishuvlari doirasida 2030 yilgacha parnik gazlar yuzaga kelishini oldini olish va yashil texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, yashil energetika asoslarini yaratish orqali istiqbolda noodatiy energiya manbalaridan energiya olishni 3 martaga oshirish rejalashtirilgan.

Jahon iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun bugunki kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. “Yashil iqtisodiyot” g‘oyasi 2008 yilda Yunepning “Global yashil iqtisodiyot” kursida ko‘tarilgan. 2008 yilda yuz bergan moliyaviy inqiroz va 2020 yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi ta’sirida yuz bergan inqiroz sharoitida yangi rivojlanishni tashkil etish va yangi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan beriladigan imtiyozlar va mexanizmlarni ishlab chiqish asosiy maqsad qilingan.

Dunyo xo‘jaligidagi postindustrial bosqichga o‘tish uchun bir necha global muammolar yechimini topish, yashil iqtisodiyot mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratish zarurdir. Barcha mamlakatlarda olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda asosiy diqqatni atrof-muhit o‘zgarishlariga hisobga olish kerak. Shu sababdan bir necha tadqiqotlar barqaror rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish, atrof-muhitni sof saqlash va antropogen ta’sirni minimallashtirish yo‘nalishlarini takomillashtirish zarur. Shu orqali dunyo xo‘jaligi oldida yangi iqtisodiyotni yaratish ya’ni yashil iqtisodiyotni rivojlantirish geoekologik qonuniyatlar doirasida amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot – shunday iqtisodiyotki, unda inson faoliyati doirasida ijtimoiy munosabatlarni e’tiborga olgan holda ekologik xatarlarni kamaytirib, ekologik muammolar yechimi topilgan va antrpogen ta’sir darajasini pasaytirilgan holdagi xo‘jalik shakllarini shakllantirishdan iborat [4]. Bizning fikrimizcha esa yashil iqtisodiyot – iqtisodiyotni xo‘jalik shakllarida inson ta’siri minimal darajada bo‘lishi, tabiatni sof holda saqlab, faoliyat yurgizish shakllari asosida iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Angliyalik olimlar Dj.Atkinson va D. Pirslar tomonidan K.Gamilton va D.Diksonlar ishlab chiqqan Butunjahon banki xulosalarini qayta ishlandi. Ular ishlanmalarida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularni tabiatga bog‘liqlik tomonlari qayta ko‘rib chiqilgan. Birinchidan tabiiy toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ularni YaIM dagi ulushini o‘sishini ta’minlash, tabiiy resurslar va atrof-muhitni ifloslanishi miqdorini aniqlash mexanizmlarini takomillashtiriladi.

Dunyo xo‘jaligi barcha sohalarda yashil iqtisodiyot barpo etish uchun qat’iy harakat qilar ekan, shu asnoda O‘zbekiston Respublikasi ham iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda, yangi yo‘nalishlarni tashkil etishda bunday tarkibiy o‘zgarishlarni e’tibordan qochirmasliklari zarurdir. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirar ekanmiz sohaga yangi innovatsion ishlanmalarni joriy etishimiz, tabiatdan foydalanish darajasini tartibga solishimiz kerak bo‘ladi va shu orqali ekologik toza, zararsiz bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarini barpo etish mumkin bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot mexanizmlari orqali iqtisodiyotnning yangi o‘sish nuqtalarini va o‘sish markazlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Iqtisodiyotda o‘sish

nuqtalari va o‘sish markazlari tushunchasi yanada kengroq anglash maqsadida F.Perruning “O‘sish qutblari” [2] nazariyasiga murojaat qilamiz. Fransuz iqtisodchisi Fransua Perruning g‘oyasi aynan o‘sish nuqta, markaz, qutblariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu g‘oya iqtisodiy makon uncha shakllanmagan, katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan hududlarda yaxshi samara beradi. Bunday hududlarga turli omillar va shart-sharoitlar hisobga olingan, qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lgan nuqtada aholi punktida yirik sanoat korxonasi joylashtiriladi va o‘sish markazi vujudga keladi. Bu markazlardagi sanoat korxonalari asta-sekinlik bilan turdosh va texnologik yaqin bo‘lgan sanoat tarmoqlari bilan boyib boradi va ularni bu juda yaqin joylashtirishni imkoni bo‘lmaydi, huddi shu paytda juda uzoqlashtirishni ham iloji yo‘q, o‘rtacha masofada bunday korxonalarni joylashtirish o‘z navbatida o‘sish qutblarini rivojlantiradi. Bu o‘sish qutblari rivojlanish davomida o‘sish markazlariga aylanadi va ularni ham qutblari shakllanadi va bu jarayon ketma-ketlikda davom etadi. Tanlab olingan hududni iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari ochila boraveradi. Yuqoridagi nazariyaga ko‘ra yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida tanlab olingan hududda asosiy o‘sish nuqtalari shakllantiriladi, keyin esa uning markazlari va qutblari rivojlantiriladi. Bunda asosiy e’tibor tanlab olingan hududni to‘g‘ri ixtisoslashtirish talab etiladi va unda hududning xususiyatlaridan va tabiiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirish zarurdir.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyo xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar ta’sirida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berish bu tabiiy holdir. Shu bilan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, yangi innovatsion shakllarini barpo etish orqali iqtisodiyotni turli sohalari va tarmoqlarini jadal rivojlantirish va barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga erishishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot ta’sirida bir necha o‘zgarishlar bo‘lishi kutilmoqda:

Birinchidan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini tabiatga bo‘lgan ta’siri pasaytirish;

Ikkinchidan, tabiiy ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali yashil iqtisodiyot ulushi yillar davomida oshirib borish;

Uchinchidan, iqtisodiyotni barcha soha va tarmoqlariga innovatsiyalarni keng joriy qilinishi va tabiatga antropogen ta’sirni minimallashtirilishiga olib keladi.

Shu bilan birga bugunki kunda mamlakat iqtisodiyotini yashil iqtisodiyot shakllariga o‘tkazish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, atrof-muhitga uglevodorodlar chiqishi kamaytirish, iqlim o‘zgarishlarini oldini olish va anomal iqlim o‘zgarishlarni pasaytirish, ozon qatlami yemirilishini oldini olish va ozon tuynugi muammosini hal etish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” ikkinchi xalqaro sammiti ishida so‘zlagan nutqi, 2021 yil, 30-31 may., https://oz.sputniknews-uz.com/20210530/mirziyoev-seuldagi-sammitda-ishtirok-etdi-asosiy-fikrlar-18989066.html

2. Soliev A, Ahmedov E.A, Mahamadaliev R.Y, Nazarov M.I, Tojieva Z.N, Boltaev M.J, Atajanova U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T-2003,62-64 b.

3. Internet manzili: https://igtipc.org/ru/news-res/738-ob-jomy-zeljonogo-finansirovaniya-vyrosli-na-50-i-prevysili-250-mlrd-v-2019-g
4. UNEP’s Green Economy Initiative (GEI). URL: https://www.unep.org/greeneconomy (accessed 02.10.2019)
5. Кенжаев И. Э., Балтабаев М. Т., Абдурахманов Ш. Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
6. Siddikov A. M., Baltaboev M. T., Abduraxmonov S. S. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 76-80.
7. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
8. Уринов Бахром Жамолиддинович. (2022). ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ. https://doi.org/10.5281/zenodo.6553514
9. Abduraxmonov S. S. O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING YANGI DAVRI

G’aniyev M.X.
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “yashil iqtisodiyot” ning zarurligi, omillari va mavjud imkoniyatlari bo‘lgan quyosh va shamol energiyasi resurslari tahlil qilingan. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari, “yashil energetika”ni istiqbolda barqaror rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *“Yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlantirish, davlat iqtisodiy siyosati, uglevodorod energiyasi, “yashil energetika”ga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya, «yashil» iqtisodiy infratuzilma, “yashil» obligatsiyalar”.*

Аннотации. *В данной статье анализируются потребность, факторы и доступные возможности использования ресурсов солнечной и ветровой энергии. Выделены основные направления финансирования процесса перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане, механизмы устойчивого развития «зеленой энергетики» в будущем.*

Ключевые слова. *«Зеленая экономика», устойчивое развитие, государственная экономическая политика, углеводородная энергетика, переход к «зеленой энергетике», возобновляемая энергетика, «зеленая» экономическая инфраструктура, «зеленые» облигации.*

Abstract. *This article analyzes the need, factors and available opportunities of solar and wind energy resources. The main directions of financing the process of transition to "green economy" in Uzbekistan, the mechanisms of sustainable development of "green energy" in the future are highlighted.*

Keywords. *"Green economy", sustainable development, state economic policy, hydrocarbon energy, transition to "green energy", renewable energy, "green" economic infrastructure, "green" bonds.*